



KADRLARNI TAYYORLASH VA SIFAT JIHATIDAN TAKOMILLASHTIRISH

BAYMATOVA U.S.,

CHirchiq OTQMBYU Qo'shinlar kundalik faoliyati va qo'shnlarni boshqarish kafedrasini katta o'qituvchisi, dotsent.

Annotatsiya. Maqolada harbiy ta'limni sifat jihatidan takomillashtirish yo'naliishlari, mexanizmlari, rivojlantirishning shart-sharoitlari va imkoniyatlaridan unumli foydalanish to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, harbiy ta'lim, pedagog kadrlar, yetakchilik, rivojlantirish, samaradorlik.

Аннотация. В статье раскрываются качество военного образования, развитие направлений, механизмы и продуктивное использование возможностей и условий развития, а также требования, предъявляемые учебным заведениям.

Ключевые слова: учебный процесс, военная наука, педагогические кадры, лидерство, развитие, эффективность.

Davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish komil inson tarbiyasiga mas'ul - o'qituvchi zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o'z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas'uliyati yuklangan[1. 5-8 betlar].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: Har kim ta'lim olish huquqiga ega va 51-modda: Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli deb belgilangan [5. 20-21 betlar].

2022 yil 28 yanvarda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PQ-60 Prezident farmoni qabul qilindi va yettita



yo‘nalishda ishlar faoliyati belgilab berildi.

Jumladan, yettinchi yo‘nalish - Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo‘lib, unda:

- Qurolli Kuchlar yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish.
- Qurolli Kuchlarda yagona axborot kommunikatsiya tizimini yaratish va axborot xavfsizligini ta’minlash.
- Mudofaa vazirligi qo‘shinlarining jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o‘quv moddiy-texnik bazasini yanada takomillashtirish.
- Oliy harbiy ta’lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish.
- Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini yaratish tizimini rivojlantirish.
- Qo‘shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta’minlash.
- Qurolli Kuchlarda axloqiy-ruhiy ta’minotni va harbiy psixologlar institutini yanada takomillashtirish hamda harbiy xizmatchilarning jangovar ruhiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash.
- Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish belgilab berilgan [2. 216-225 betlar].

Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda harbiy ta’lim o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi: belgilangan muddatlarda o‘z Vataniga sodiq, intellektual jihatdan rivojlangan va teran fikrlay oladigan, zamonaviy umumqo‘shin janglarda, qism va bo‘linmalarni qo‘llash nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha puxta bilimlarga ega, ehtimoli mavjud bo‘lgan, harbiy harakatlar teatridagi, qiyin jangovar-xizmat va tezkor vaziyatlarga tez aniqlik krita oladigan, maqsadga muvofiq qarorlarni mustaqil qabul qilib, mohirona amalga oshira oladigan, yuqori shtab madaniyatiga va oqilona tashabbusga, keng dunyoqarashga, yuqori tarbiyaviy, mafkuraviy va ma’naviy-ma’rifiy sifatlarga ega, qo‘shinlarni jangovar harakatlarini tashkillashtiradigan va



ta'minlaydigan hamda ularni boshqara oladigan, shaxsiy tarkibni o'qitish va tarbiyalash, tarkibiy tuzilmalarda nizom talablarini mustahkam ushlab turish mahoratiga hamda yuksak axloq-odob va dunyoqarashi hamda fikrlash doirasi keng bo'lgan yuqori professional, qism va bo'linmalarda mustahkam intizomni ushlab turish hamda harbiy xizmat xavfsizligini ta'minlash kabi amali ko'nikmalarga ega harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard oliy malakali ofitserlarni tayyorlash [3].

O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 2022 yil 15 sentabr dagi 686-sonli buyrug'i, "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga solish to'g'risida" gi Nizom.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari (matn davomida-OHTM) faoliyatini belgilaydi.

OHTM o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri va Qurolli Kuchlar bosh shtabi boshlig'ining buyruq va direktivalari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, mazkur Nizom va OHTM ustaviga amal qiladi.

Shuningdek, OHTM jangovar va safarbarlik shayligi, garnizon xizmati masalalari bo'yicha OHTM joylashgan harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining buyruqlariga amal qiladi.

OHTM oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar:

o'z Vatani – O'zbekiston Respublikasiga va xalqiga sodiq, OHTM bitiruvchisining ixtisoslik bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan malaka talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorgarligini sifatli tashkillashtirish;



harbiy bo‘linmani mohirona boshqarish, murakkab taktik vaziyatda tezkor qaror qabul qilishva mustaqil harakatlanish, maqsadga muvofiq qarorlarni qabul qilish va shaxsiy reja namunasi bilan o‘z bo‘ysunuvchilarini jangovar-xizmat vazifalarini bajarishga safarbar etish qobiliyatiga, harbiy ish sohasida chuqur bilimlar, yuksak ma’naviy-ruhiy, ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, yetakchilik, keng dunyoqarash va intellekt, yuqori tashkilotchilik va boshqaruvchanlik faoliyatiga oid sifatlariga ega hamda ishonib topshirilgan jangovar texnika va qurol-aslahani to‘g‘ri qo‘llashga oid ko‘nikmalarni puxta egallagan ofitserlarni tayyorlash;

OHTM magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha ixtisosligi va yo‘nalishiga mos keluvchi ilmiy-pedagogik kadrlar bilan ta’minalash;

o‘quv rejalarini va dasturlariga muvofiq tashkilotlarda kursant va tinglovchilarning amaliyotlari, stajirovkasi, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarining tajriba-sinov qismlarini bajarishi uchun bu tashkilotlar bilan OHTM (fakultet, kafedralar) o‘rtasida shartnomalar va kelishuvlarni tuzish;

magistratura tinglovchilarini tayyorlash jarayoniga O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari, tarmoq ilmiy-izlanuvchilik va loyiha muassasalarining yetakchi olimlari, shuningdek xorijiy olimlar, yuqori malakali, tajribali mutaxassislarning soatbay asosida ishga jalb qilish;

operativ-taktik va taktik pog‘onaga mansub ofitser kadrlar va harbiy pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakalarini oshirish;

professor-o‘qituvchilar tarkibining professional mahoratlarini oshirish, qo‘sishnlarda katta tajriba to‘plagan ofitserlarni, yuqori malakali mutaxassislarni, mamlakatimizning yetakchi oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilarini o‘qituvchilik faoliyatiga jalb etish;

o‘quv va moddiy-texnik bazani rivojlantirish, ta’lim jarayoniga ta’limning zamonaviy texnologiyalari, usullari, texnik vositalari va kompyuter texnologiyalarini tatbiq qilish;

ta’lim jarayoni va qo‘sishnlarning kundalik jangovar-xizmat faoliyati o‘rtasida uzluksiz aloqani ta’minalash;

jangovar harakatlar olib borishning zamonaviy usullarini hamda harbiy fan va



texnika sohasida erishilgan so‘nggi yutuqlarni chuqur tahlil qilish asosida o‘quv va uslubiy adabiyotlar, qo‘llanma va nizomlarni ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmat va ofitserlik kasbi nufuzini oshirishda faol ishtirot etish.

OHTM boshlig‘i tinchlik va urush davrida: OHTMning jangovar va safarbarlik shayligi; jangovar vazifalar OHTM tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishi; OHTMdagi ta’lim jarayoni, shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligi, tarbiyasi, harbiy intizomi va ma’naviy-ruhiy holati hamda harbiy xizmat xavfsizligi; kadrlarni lavozimga tayinlash; ichki tartib; OHTM qurol-aslahalari, harbiy texnikasi va boshqa moddiy vositalarining holati va but saqlanishi; OHTMning texnik, moddiy, tibbiy, moliyaviy, ijtimoiy-huquqiy va maishiy ta’minoti uchun javob beradi. U O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining ta’lim sohasi uchun mas’ul o‘rnbosariga bo‘ysunadi va OHTMning barcha shaxsiy tarkibi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshliq sanaladi[4].

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshqaruv asoslari. Darslik. Toshkent-2020. O‘R QK Akademiyasi. SH.To‘laganova, U.Boymatova, B.Djuraev.
2. Boshqaruv faoliyati asoslari. Darslik. 1 qism. ChOTQMBYU-2022. U. Baymatova, J.Artikov, A.Nazarmatov, A. Djuraev.
3. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 605-sonli buyrug‘i 2022 yil 16 avgust. –T., 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 686-sonli buyrug‘i 2022 yil 15 sentyabr. –T., 2022
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston” –T., 2023.